| Xodjayev Aziz Shovkatovich                                                                                                                                              |     |
| MAHALLIIY HOKIMIYAT QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIDA DINAMIK OMILLAR VA ULARNING INTEGRATSIYASI .....                                                                   | 611 |
| Axmedov Farxod Raxmonjonovich                                                                                                                                           |     |
| UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAHLIL QILISH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                      | 617 |
| Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich                                                                                                                                     |     |
| ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ТУРИЗМА ЧЕРЕЗ КРЕАТИВНУЮ ИНДУСТРИЮ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН .....                                 | 623 |
| Хошимова Камилла Навфал қизи                                                                                                                                            |     |
| IMITATION MODELDA AXBOROT NORAVSHANLIGI SABABLI YUZAGA KELADIGAN IQTISODIY SAMARASIZLIK TAHLILI .....                                                                   | 633 |
| Qodirov Zohidjon Eralievich                                                                                                                                             |     |



|                                                                                                                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN KREDITLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                                                | 637 |
| Turdiboyeva Kumush Erkinovna                                                                                                                                   |     |
| SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARI SOHASIDA SIFATNI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI<br>VA IQTISODIY SAMARADORLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK .....                               | 641 |
| Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna                                                                                                 |     |
| SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINING SEGMENTATSIYASIGA ASOSLANIB SOLIQ XAVFLARINI<br>ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDOSHUVI .....                              | 648 |
| Elbaeva M.R.                                                                                                                                                   |     |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....                                                                              | 653 |
| Hamroyev G'ayratjon Sultonovich                                                                                                                                |     |
| QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQUISHNI SIFAT MENEJMENTI<br>TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....                  | 657 |
| Achilov Ilmurad                                                                                                                                                |     |
| MINTAQALAR INVESTITSION SALOHİYATINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK<br>ASOSLARI .....                                                                     | 663 |
| Qobilov Anvar Eshpo'lotovich                                                                                                                                   |     |
| KORXONALARNING YASHIL MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH<br>METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                     | 669 |
| Sapayev Axmed Durdibayevich                                                                                                                                    |     |
| SANOAT KORXONALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA KO'P MEZONLI TAHLIL<br>USULLARINI QO'LLASH.....                                                              | 674 |
| Muxammadaliyev Mirzohidjon Muxammadali o'g'li                                                                                                                  |     |
| BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI .....                                                                                | 681 |
| Abdullayev Shaxzodbek                                                                                                                                          |     |
| ENSURING SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT THROUGH INTEGRATION<br>OF RECREATION AND ECOTOURISM RESOURCES IN UZBEKISTAN .....                                    | 686 |
| Shaymanova Nigora Yusupovna                                                                                                                                    |     |
| MAKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOL VA JAMG'ARISH FUNSIYALARI VA ULARNING<br>O'ZBEKISTONDA O'ZGARISHI TENDENSIYALARI .....                                             | 691 |
| Rustamov Narzillo Istamovich                                                                                                                                   |     |
| CHAKANA SAVDONI BOSHQARISHDA "BIG MIDDLE" NAZARIYASIDAN FOYDALANISH.....                                                                                       | 697 |
| Yaqubov Azizbek G'anibekovich                                                                                                                                  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING<br>PROGNOZ VARIANTLARI .....                                                               | 701 |
| Ermetov Amirbek Ismailovich                                                                                                                                    |     |
| FISKAL NOMARKAZLASHTIRISH BO'YICHA XITOIY TAJRIBASI .....                                                                                                      | 708 |
| Lokayev Bekzod Sherkobilovich                                                                                                                                  |     |
| SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARI: IMKONIYATLAR<br>VA CHEKLOVLAR.....                                                                           | 712 |
| Ismatullayeva Munisxon Bori qizi                                                                                                                               |     |
| EKOLOGIYA VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH<br>BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....                                  | 717 |
| Dilshod Pulatov, Dildora Mirzaeva, Gulzora Qahharova                                                                                                           |     |
| TIKUV-TRIKOTAJ SANOATIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH OMILLARI<br>VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI .....                                                           | 725 |
| Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li                                                                                                                              |     |
| BURNOUTNING OLDINI OLIH: XODIMLAR SALOMATLIGI STRATEGIYASI .....                                                                                               | 731 |
| Ergasheva E'zoza Dilshod qizi                                                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA KORXONALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI<br>MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....                                            | 736 |
| Pulatova Moxira Baxtiyorovna                                                                                                                                   |     |
| QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLARNI BOSHQARISH VA HISOBGA OLIHNING<br>INNOVATSION USULLARI: MENEJMENT VA BUXGALTERIYANING O'ZARO INTEGRATSIYASI ..... | 742 |
| Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li                                                                                                 |     |



|                                                                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI .....                                                         | 748 |
| Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li                                                                                                   |     |
| OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI .....                                                                                    | 754 |
| Talapova Nargiza Baxriddinovna                                                                                                    |     |
| ВОЗОБНОВЛЕНИЕ ДОБЫЧИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ИЗ ТРЁХ СКВАЖИН УЧАСТКА ХОДЖАСАЯТ<br>ГКМ ДЕНГИЗКУЛЬ .....                                    | 758 |
| Набиев Шахзод Темурович, Иргашбаев Шохрух Фаррух угли, Маннафов Улугбек Умар угли                                                 |     |
| MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS<br>XUSUSIYATLARI .....                                    | 764 |
| Toxirov Dilyor Davlatovich                                                                                                        |     |
| MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....                                                          | 768 |
| Babadjanov Umiddbek Kamildjanovich                                                                                                |     |
| TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI .....                                                           | 773 |
| Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li                                                                                                   |     |
| QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH<br>MEZONLARI .....                                     | 777 |
| Abdikarimova Zilola Baxramovna                                                                                                    |     |
| TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                      | 784 |
| Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna                                                                                                     |     |
| AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI<br>QO'LLAB-QUVVATLASH .....                                      | 788 |
| Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi                                                                                                   |     |
| TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                     | 791 |
| Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li                                                                                                    |     |
| FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC<br>STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....           | 796 |
| Maxmudov S.T.                                                                                                                     |     |
| ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ .....                                                             | 801 |
| Юсупова Н.Т.                                                                                                                      |     |
| SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR<br>TAHLILI .....                                       | 807 |
| Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi                                                                                       |     |
| DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....                                                            | 812 |
| Abdumalikova G.F.                                                                                                                 |     |
| MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY<br>VA INSTITUTSION ASOSLARI .....                            | 821 |
| Kenjayev Ikrom Ergashboyevich                                                                                                     |     |
| RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI .....                                                | 828 |
| Azimova Moxinur Nozimovna                                                                                                         |     |
| XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY<br>MEXANIZMLARI .....                                 | 834 |
| G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li                                                                                                 |     |
| SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH<br>TURIZMI SALOHİYATI .....                         | 839 |
| Murtazayeva Gulrux Isabek qizi                                                                                                    |     |
| MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS<br>USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA) ..... | 845 |
| Safarov Manuchexr Axtam o'g'li                                                                                                    |     |
| XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                            | 852 |
| Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich                                                                                                 |     |
| TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARINING<br>SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI .....                         | 857 |
| Maxmudova Aziza Pirmamatovna                                                                                                      |     |



|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI .....                                                                | 863 |
| Raxmanov Ilxom Xurramovich                                                                                                                           |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                        | 871 |
| Maxsudov Sherzod Solijonovich                                                                                                                        |     |
| FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....                                 | 877 |
| Mahmudov Sarvar                                                                                                                                      |     |
| ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH .....                                                                            | 882 |
| Zilola Rahmatova                                                                                                                                     |     |
| XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXAСТИK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV .....                               | 887 |
| Fozil Xolmurotov                                                                                                                                     |     |
| МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....                                                             | 900 |
| Мамаризоев Жахонгир Исохонович                                                                                                                       |     |
| EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI .....                                                                              | 905 |
| Egamqulov Husniddin Erkaboyevich                                                                                                                     |     |
| CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....                                                                                | 911 |
| Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich                                                                                      |     |
| КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ .....                                                     | 918 |
| Сагидуллин Фарид Радикович                                                                                                                           |     |
| ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....       | 927 |
| Бабаджанова Лола Шопулатовна                                                                                                                         |     |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....                                                            | 935 |
| G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich                                                                                       |     |
| TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI .....                                          | 943 |
| Abduxamidov Sarvar Adxamovich                                                                                                                        |     |
| TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....                   | 947 |
| Imamova Nilufar Asamutdinovna                                                                                                                        |     |
| EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....                                                                         | 954 |
| Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi                                                                                                                     |     |
| TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI .....                                                               | 960 |
| Sirojiddinov Kamoliddin                                                                                                                              |     |
| XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                             | 967 |
| Seytimbetov Kabul Serimbetovich                                                                                                                      |     |
| AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....                                                                 | 971 |
| Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li                                                                                                                |     |
| TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI .....                                               | 976 |
| Abdusattorov Abdusamat Sobirovich                                                                                                                    |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI ..... | 981 |
| Karieva Gulnora Abdullayevna , Normurodov Sarvar Norboy o'g'li                                                                                       |     |
| TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI .....                                                                       | 989 |
| Dusanov Salim Mamarasulovich                                                                                                                         |     |



|                                                                                                                        |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI .....                    | 995  |
| Temirov Azizbek Voit o'g'li                                                                                            |      |
| STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....                 | 1002 |
| G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova                                                                   |      |
| ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....                                 | 1009 |
| Шакаров Зафар Гаффорович                                                                                               |      |
| TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....                  | 1018 |
| Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi                                                      |      |
| TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH ..... | 1027 |
| Xojiyeva Nazokat Davronbekovna                                                                                         |      |
| QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....               | 1034 |
| Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi                                                                                       |      |



# QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA

**Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi**

Mustaqil izlanuvchi

E-mail: shodiyevazarinabonu@gmail.com

**Annotatsiya.** Bugungi globallashuv davrida, butun dunyo jiddiy ekologik inqirozlarga duch kelayotgan bir paytda, qayta tiklanadigan energiya manbalariga bo'lgan talab va ehtiyoj izchil ortib bormoqda. Geosiyosiy jarayonlarda ham ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada qayta tiklanadigan energiya manbalarining O'zbekiston iqtisodiy o'sishiga ta'siri tahlil etilgan. Tadqiqotda 2020–2025-yillar davrida quyosh, shamol, gidroenergetika hamda biomassa manbalarining yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishiga qo'shgan hisssasi o'rganilgan. Ma'lumotlar Xalqaro qayta tiklanadigan energiya agentligi (IRENA) va Jahon banki (World Bank) statistik ma'lumotlariga asoslangan. Tahlil natijalari qayta tiklanadigan energiya quvvatining ortishi mamlakat YAIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** qayta tiklanadigan energiya, barqaror iqtisodiy o'sish, batareya quvvatini saqlash texnologiyalari, innovatsion akkumulyator batareyalar, IRENA, World Bank.

**Abstract.** In the modern era of globalization, as the world faces serious environmental challenges, the demand and need for renewable energy sources are steadily increasing. This trend has made the issue even more significant in global geopolitical processes. This article analyzes the impact of renewable energy sources on Uzbekistan's economic growth. The study covers the period of 2020–2025, focusing on the contribution of solar, wind, hydropower, and biomass energy to GDP growth. The data are based on the statistics of the International Renewable Energy Agency (IRENA) and the World Bank. The results of the analysis demonstrate that the expansion of renewable energy capacity has a positive influence on the country's GDP growth.

**Key words:** renewable energy, sustainable economic growth, battery energy storage technologies, innovative accumulator batteries, IRENA (International Renewable Energy Agency), World Bank.

**Аннотация.** В современную эпоху глобализации, когда весь мир сталкивается с серьезными экологическими вызовами, спрос и потребность в возобновляемых источниках энергии неуклонно возрастают. Данная тенденция придаёт рассматриваемой проблеме особую актуальность в контексте мировых геополитических процессов. В статье анализируется влияние возобновляемых источников энергии на экономический рост Узбекистана. В исследовании охвачен период 2020–2025 годов, особое внимание уделено вкладу солнечной, ветровой, гидроэнергетики и биомассы в рост ВВП. Используются статистические данные Международного агентства по возобновляемым источникам энергии (IRENA) и Всемирного банка. Результаты анализа показывают, что увеличение доли возобновляемой энергии оказывает положительное влияние на экономический рост страны.

**Ключевые слова:** возобновляемая энергия, устойчивый экономический рост, технологии хранения энергии в батареях, инновационные аккумуляторные батареи, IRENA (Международное агентство по возобновляемым источникам энергии), Всемирный банк.

## KIRISH

Bugungi globallashuv davrida energiya resurslaridan samarali foydalanish hamda yashil iqtisodiyotga o'tish masalalari butun dunyo miqyosida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda energiya tejamkorligi, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror o'sishni ta'minlash strategik ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. O'zbekiston ham ushbu jarayonlarda faol ishtirok etib, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish hamda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni izchil amalga oshirmoqda.

XIX–XX asrlar davomida insoniyat ehtiyojini qondirish uchun foydalanilgan energetik resurslar balansida asosan qayta tiklanmaydigan energiya manbalari ustunlik qilgan bo'lsa, XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib



bu balansda sezilarli o'zgarish kuzatildi. Shu davrdan boshlab qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushi muntazam ortib bormoqda [1].

Qayta tiklanadigan energiya manbalari — quyosh, shamol, gidroenergetika va biomassa — global energetika tizimida barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So'nggi yillarda dunyo mamlakatlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ushbu sohalarga katta hajmda sarmoya yo'naltirmoqda [2]. O'zbekiston ham 2030-yilga kelib elektr energiyasining 40–54 foiz qismini qayta tiklanadigan manbalardan ishlab chiqarishni maqsad qilib qo'ygan. Shu sababli, qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Quyosh energetikasi sohasidagi eng muhim innovatsion yutuqlardan biri — batareya energiyasini saqlash tizimlarining joriy etilishidir. Ushbu tizimlar quyosh energiyasining beqaror tabiati bilan bog'liq muammolarni samarali hal etadi, chunki ular quyosh nurlanishi eng yuqori bo'lgan soatlarda ishlab chiqarilgan ortiqcha energiyani to'plab, ishlab chiqarish darajasi pasaygan yoki energiyaga talab oshgan paytlarda uni qayta foydalanish imkonini beradi. Natijada, energiya ta'minoti barqarorligi ta'minlanadi va quyosh qurilmalari samaradorligi sezilarli darajada oshadi [4].

Batareya energiyasini saqlash bozori hozirda faol rivojlanish bosqichida bo'lib, vaqt o'tishi bilan texnologiyalar yanada takomillashib, narxlar iqtisodiy jihatdan yanada maqbul bo'lishi kutilmoqda. Ayni paytda mazkur texnologiyalar dunyo mamlakatlarida tarmoqlararo hamda tarmoqdan tashqari turli sohalarda keng qo'llanilmoqda. Yangi loyihalarning ko'plab muvaffaqiyatli namunalari, asosan, rivojlangan mamlakatlarda shakllanayotgan bo'lsa-da, bu yo'nalish rivojlanayotgan davlatlar uchun ham katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanadigan energiya manbalariga yo'naltirilgan sarmoyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Dogan (2020) o'z tadqiqotida qayta tiklanadigan energiya iste'moli bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini aniqlagan [5]. Shuningdek, Fuinhas va hammualliflar (2020) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda qayta tiklanadigan energiya sohasiga kiritilgan investitsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratish, energiya importi hajmini kamaytirish va milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga sezilarli hissa qo'shishi ta'kidlangan [6].

O'zbekiston kontekstida ham qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik muvozanatni saqlash va energiya xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda [7]. Mamlakatning tabiiy-iqlim sharoitlari, geografik joylashuvi va resurs salohiyati bu yo'nalishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

O'zbekiston qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, xususan, quyosh va shamol energetikasi sohasida katta salohiyatga ega bo'lib, o'sib borayotgan energiya ehtiyojlarini qondirish hamda toza energiyaga o'tish uchun yetarli imkoniyatlarga ega. Energetika balansini diversifikatsiya qilish orqali mamlakatning tabiiy gazga bo'lgan yuqori bog'liqligini kamaytirish va energiya tizimining barqarorligini oshirish maqsad qilingan.

Hukumat tomonidan qabul qilingan strategik dasturlarga ko'ra, 2030-yilga kelib elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan manbalar ulushini 25 GVt gacha yoki mamlakatdagi umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining 40 foizigacha yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu sa'y-harakatlar O'zbekistonning ekologik toza energetikaga o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish va aholining ortib borayotgan energiya talabini qondirishga qaratilgan. Mazkur yo'nalishda xalqaro moliya institutlarining, jumladan, Jahon banki guruhining ko'magi ham muhim o'rin tutadi. Xususan, ushbu tashkilot xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish orqali O'zbekistonda 1000 MVt quvvatga ega quyosh energiyasi va 500 MVt quvvatli shamol energetikasi loyihalarini rivojlantirishga ko'maklashmoqda [4]. Bu esa mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini mustahkamlash va energiya mustaqilligini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamlardan biridir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining 2020–2025-yillardagi qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish ko'rsatkichlari hamda yalpi ichki mahsulot (YAIM, ingl. GDP) dinamikasi statistik tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi — qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushining iqtisodiy o'sishga ta'sir darajasini aniqlashdir.

Ma'lumot manbalari:

Tahlilda foydalanilgan asosiy ma'lumotlar Xalqaro energetika agentligi (IEA) [8], Xalqaro qayta tiklanadigan energiya agentligi (IRENA) [9], O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy hisobotlari, shuningdek,



MDPI va ScienceDirect platformalarida chop etilgan ilmiy maqolalar asosida shakllantirildi. Ushbu manbalar ma'lumotlarning ishonchiligi va xalqaro taqqoslama imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Metodologiya:

Tadqiqotda panel ma'lumotlar tahlili va regressiya modeli qo'llanildi. Ushbu yondashuv qayta tiklanadigan energiya ulushi (%) bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi. Model yordamida energiya ishlab chiqarish tarkibidagi o'zgarishlarning YAIM o'sish sur'atlariga ta'siri empirik jihatdan baholandi.

O'lchov ko'rsatkichlari:


Qayta tiklanadigan energiya ulushi (%) = (Qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish / Umumiy energiya ishlab chiqarish) × 100

Iqtisodiy o'sish — Yalpi ichki mahsulot (mlrd. AQSh dollari hisobida).

Mazkur metodologik yondashuv O'zbekistonning qayta tiklanadigan energiya sektorini rivojlantirish jarayonini iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish, shuningdek, bu jarayonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash imkonini berdi. Natijalar keyingi bo'limlarda batafsil yoritilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan oqilona va samarali foydalanish O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish hajmining ortishi, ayniqsa quyosh va shamol energetikasi ulushining ko'payishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YAIM) barqaror o'sish tendensiyalarini kuchaytirgan. Empirik kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, qayta tiklanadigan energiya salohiyatining izchil rivojlanishi ishlab chiqarish bazasini kengaytirish, energetik xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2023-yillar davomida qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish hajmi va mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasida bevosita ijobiy bog'liqlik mavjud [11] (1-diagramma).




1-diagramma. O'zbekistonning qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish o'sishi (2020–2023)

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston 2020–2023-yillar davomida qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish hajmini izchil oshirib bormoqda. 2020-yilda mamlakatning umumiy energiya iste'moli 65 TWh ni tashkil etgan bo'lib, shundan 2,3 TWh qayta tiklanadigan energiya manbalariga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich umumiy energiya iste'molining 3,5 foizini tashkil etgan. 2023-yilga kelib esa umumiy energiya iste'moli 70 TWh ga yetgan holda, shundan 3,8 TWh miqdori qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olingan bo'lib, ularning ulushi 5,4 foizga yetgani kuzatiladi. Ushbu raqamlar qayta tiklanadigan energiya turlarining O'zbekiston energetika tizimida tobora muhim o'rin egallayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Quyida keltirilgan 2-diagrammada qayta tiklanadigan energiya turlarining tarkibiy tuzilmasi keltirilgan. 2025-yil holatiga ko'ra, mamlakat energetika tizimida quyosh energiyasi, shamol energiyasi, gidroenergetika va biomassa turlari salmoqli ulushni egallagan. Agar qayta tiklanadigan energiya manbalari umumiy 100 foiz hisobida olinsa, shundan quyosh energiyasi 4300 MW quvvat bilan 53,1 foiz ulushni tashkil etadi. Shamol energetikasi esa 1600 MW quvvat bilan 19,8 foiz ulushga ega. So'nggi yillarda gidroenergetika va biomassa tarmoqlarida ham sezilarli o'sish kuzatilib, ular mos ravishda 1600 MW va 400 MW quvvat bilan mamlakatni energiya bilan ta'minlab, tegishli ravishda 19,8 foiz va 4,9 foiz ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda.



Ushbu natijalar O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya sohasining barqaror rivojlanayotganini, ishlab chiqarish hajmining izchil o'sib borayotganini va energiya manbalari diversifikatsiyasi jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko'rsatadi (2-diagramma).




2-diagramma. Qayta tiklanadigan energiya turlari (2025-yil holatiga ko'ra) [12]

Quyida keltirilgan 3-diagrammada O'zbekistonda 2020–2025-yillar oralig'ida qayta tiklanadigan energiya ulushi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik aks ettirilgan [13]. Diagrammada X o'qi qayta tiklanadigan energiya ulushini (%) — 0 dan 5 foizgacha, Y o'qi esa yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmini — 60 mlrd. AQSh dollaridan 75 mlrd. AQSh dollarigacha ifodalaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2020-yilda O'zbekiston YAIM hajmi 59,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, ushbu davrda qayta tiklanadigan energiya ulushi 1,2 foiz atrofida bo'lgan. Yillar davomida mazkur ko'rsatkich izchil o'sish tendentsiyasini namoyon etib, 2025-yil oxiriga kelib mamlakat YAIM hajmi 73 mlrd. AQSh dollariga yetishi, qayta tiklanadigan energiya ulushi esa 3,5 foizga ortishi prognoz qilinmoqda.

Diagrammadagi nuqtalarning bosqichma-bosqich yuqoriga ko'tarilib borayotgani qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish hajmi bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat O'zbekistonda amalga oshirilayotgan qayta tiklanadigan energiya loyihalari mamlakat iqtisodiy o'sishiga bevosita va barqaror hissa qo'shayotganini anglatadi (3-diagramma).



3-diagramma. Qayta tiklanadigan energiya ulushi va iqtisodiy o'sish (YAIM)



Shu asosda aytish mumkinki, O'zbekiston energetika siyosatida qayta tiklanadigan manbalar ulushini oshirish nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston misolida qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o'sishiga barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Quyosh va shamol energiyasiga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratmoqda, balki energiya importini qisqartirish, energetik mustaqillikni ta'minlash va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Davlat siyosati, soliq imtiyozlari va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining izchil qo'llanilishi ushbu jarayonni yanada jadallashtirayotganini ta'kidlash lozim [3].

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanadigan energiya ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari sezilarli darajada ortadi [2]. O'zbekiston uchun ham ushbu istiqbol mavjud bo'lib, mamlakatda energiya sohasida texnologik imkoniyatlarni kengaytirish, ilg'or tajribalarni joriy etish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali bu yo'nalishda yangi bosqichga chiqish uchun mustahkam zamin yaratilmoqda.

Energiyaga bo'lgan talabning ortib borishi sharoitida energiya manbalarining diversifikatsiyasi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Shu bilan birga, quyosh elektr stansiyalari, shamol turbinalari va modernizatsiyalangan elektr tarmoqlari kabi infratuzilmani kengaytirish jarayoni katta hajmdagi sarmoyalarni, zamonaviy texnologiyalarni va malakali mutaxassislarni talab etadi. Qayta tiklanadigan energiya tabiatan mavsumiy va beqaror bo'lgani sababli, samarali energiya saqlash tizimlarini joriy etish barqaror energiya ta'minotini kafolatlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonning muvaffaqiyati, o'z navbatida, hukumat, xususiy sektor va xalqaro moliyaviy hamkorlar o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlikka bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda quyosh energiyasi sohasida innovatsion akkumulyator batareyalaridan foydalanish hali yangi bosqichda bo'lsa-da, ularning iqtisodiy va ekologik samaradorlik nuqtai nazaridan katta salohiyatga ega ekani kuzatilmoqda. Bunday energiya saqlash texnologiyalari milliy energetika tizimining barqarorligini mustahkamlash, chekka hududlarda ishonchli energiya ta'minotini yo'lga qo'yish hamda issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish orqali "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga muvofiq rivojlanishga xizmat qiladi [4].

Shu bois, energiyani saqlash texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash va keng joriy etish O'zbekiston hukumati uchun strategik yo'nalish hisoblanadi. Bu nafaqat qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytiradi, balki mamlakatning energetika tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ham imkon yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/403/presentations/rBLtligMXW0XdBNYWJEIzEoSEWCyzYPkBgVJJRH.pdf>
2. [https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public\\_html/article/view/1112/912](https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1112/912)
3. Kun.uz. (2025-yil). Uzbekistan aims to generate 54% of electricity from renewable sources by 2030. <https://www.kun.uz/en/news/2025/04/19/uzbekistan-aims-to-generate-54-of-electricity-from-renewable-sources-by-2030>
4. <https://energyforum.uz/uz/yangiliklar/ozbekistonda-qayta-tiklanadigan-energiya-manbalarini-rivojlantirish> (Nil Makkeyn, IFCning O'zbekiston va Turkmaniston bo'yicha mintaqaviy menejeri bayonotidan)
5. Dogan, E. (2020-yil). The impact of renewable energy consumption on economic growth. Energy Economics, 92, 104948. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0140988320302061>
6. Fuinhas, J.A., Koengkan, M., Santiago, R.F. (2020-yil). Renewable Energy Consumption and Economic Growth. MDPI Books. <https://www.mdpi.com/books/reprint/7100-renewable-energy-consumption-and-economic-growth>
7. IEA. (2023-yil). Uzbekistan Energy Profile. International Energy Agency. <https://www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile>
8. IRENA. (2022-yil). Statistical Profiles: Uzbekistan. International Renewable Energy Agency. [https://www.irena.org/media/Files/IRENA/Agency/Publication/2023/Mar/IRENA\\_RE\\_Capacity\\_Statistics\\_2023.pdf](https://www.irena.org/media/Files/IRENA/Agency/Publication/2023/Mar/IRENA_RE_Capacity_Statistics_2023.pdf)
9. World Bank. (2025-yil). Uzbekistan Overview: Development news, research, data. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>
10. International Energy Agency (IEA). (2023-yil). Uzbekistan Energy Profile. <https://www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile>
11. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2025-yil). Statistical Profiles: Uzbekistan. [https://www.irena.org/media/Files/IRENA/Agency/Publication/2023/Mar/IRENA\\_RE\\_Capacity\\_Statistics\\_2025.pdf](https://www.irena.org/media/Files/IRENA/Agency/Publication/2023/Mar/IRENA_RE_Capacity_Statistics_2025.pdf)
12. World Bank. (2025-yil). Uzbekistan Overview: Development news, research, data. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---